

**TAKRORIY EKIN SIFATIDA SHOLG‘OM YETISHTIRISHNING MAQBUL
MUDDATLARINI O‘RGANISH**

Турдиева Ферузахон Тиркашбоевна

*“Мева сабзавотчилик ва узумчилик” кафедраси катта ўқитувчиси Қ.х.ф.ф.д.
(PhD), Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти*

**ИЗУЧЕНИЕ ОПТИМАЛЬНЫХ СРОКОВ ВЫРАЩИВАНИЯ РЕПЫ
КАК ПОВТОРНОЙ КУЛЬТУРЫ**

Турдиевой Ферузахон Тиркашбоевна

*Старший преподаватель кафедры “Плодоовощеводство и
виноградарство” Кандидат сельскохозяйственных наук (PhD)*

Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий

**STUDYING THE OPTIMAL TIMING OF GROWING TURNIPS AS A
REPEAT CROP**

Turdiyeva Feruzakhon Tirkashboyevna

*Senior Lecturer, Department of “Fruit and Vegetable Growing and Viticulture”
PhD in Agricultural Sciences*

Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

Annotatsiya. Respublikamizning ob-havo, tuproq sharoitiga qarab har bir viloyat uchun yangi tumanlashtirilgan, mo‘l hosilli, sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan mexanizmlar yordamida ishlov berishga moslashgan, har bir ekish muddati uchun mos navlarni to‘g‘ri tanlash lozim. Sholg‘omning ahamiyati, tarqalishi, biologik xususiyatlari va ekish muddatlarini yoritishga qaratilgan.

Аннотация: В зависимости от погодных и почвенных условий нашей республики необходимо правильно подобрать сорта, подходящие для каждого периода посадки, приспособленные к обработке с помощью механизмов, обладающие высокой урожайностью, обильным урожаем и подходящие для каждого региона. Целью работы является выяснение значения, распространения, биологических особенностей и сроков посадки репы.

Annotation: Depending on the weather and soil conditions of our republic, it is necessary to correctly choose varieties suitable for each planting period, adapted to processing with the help of mechanisms with high yield, abundant yield, and suitable

for each region. It is aimed at clarifying the importance, distribution, biological characteristics and planting dates of turnips.

Kalit soʻzlar: Sholgʻom, hosildorlik, Muyassar nav, pishish, takroriy ekin, agrotexnik tadbirlar, meva sifati, kimyoviy tarkibi.

Ключевые слова: Репа, урожайность, сорт Муяссар, созревание, повторный урожай, агротехнические мероприятия, качество плодов, химический состав.

Keywords: Turnip, yield, Muyassar variety, ripening, repeated crop, agrotechnical measures, fruit quality, chemical composition.

Kirish. Eramizdan 2000 yil muqaddam maʼlum boʻlgan turp va sholgʻomning hozirgi qiyofasi butunlay boshqachadir. Oʻtmishda yovvoyi holda Oʻrta yer dengizining janubiy qirgʻoqlarida oʻsgan bu oʻsimlikning tarkibida faqat 1% ga yaqin qand moddasi boʻlib, uning ildizmevasining vazni 100 g dan ortmagan. Turp va sholgʻom hozirgi navlarining hosili juda yirik, tarkibi esa serqand. Yuqoridagilarni hisobga olib taʼkidlash mumkinki turp va sholgʻom ahamiyati va kimeviy tarkibi jixatdan sabzavotlar dunyosida muxim oʻrinni egallab, aholiga yangi yetishtirilgan, saqlagan va qayta ishlangan holda yetkazib beriladi.

Turp va sholgʻom oziq-ovqat sifatida yil davomida ishlatiladi. Bahorda ovqatga yosh barglari va ildizlari, yozda va kuzda ildizmevasi saqlanadi. Vinegretlar, salatlar, garnirlar, борщ, marinadlar tayyorlashda turp va sholgʻomdan foydalaniladi. Turp va sholgʻom istʼemol etilsa qon bosimini pasaytiradi, yogʻ almashinishi yaxshilanadi, aterosklerozni oʻsishini toʻxtatadi, osh qozon faoliyatini yaxshilaydi.

Tadqiqot uslublari va materiallari.

Takroriy ekin sifatida sholgʻom yetishtirishni maqbul mudatlarida sholgʻomni Muyassar navini 2 muddatda ekib yuqori xosil olish koʻrsatkichlarini dala sharoitida oʻrganishdan iboratdir.

Sholgʻomning “Muyassar” navining xarakteristikasi, xosildorligi, saqlash turlari, kasallik va zararkunandalari va sifat koʻrsatkichlari boʻlib xizmat qildi. Tajriba tizimida asosan takroriy ekin sifatida sholgʻomning “Muyassar” navini ikki muddatda

ekib yetishtirildi. Birinchi mudatda 1-avgust, ikkinchi mudati 10-avgust qilib belgilandi. Tajriba tizimida 2 ta variant va 4 ta qaytariqdan iborat bo‘lib qator oralari 70 sm uzunligi 50 metrni, tajribada sholg‘omning Muyassar navi ekildi.

Tajribadagi keyingi agrotexnik tadbirlar o‘lchash va sanash ishlari dasturida ko‘rsatilganidek O‘zPITI ning uslubiy qo‘llanmasiga asosan olib borildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.

Qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun sholg‘omning Muyassar navini 1-avgust va 10-avgust oylarida ekib yuqori xosil olish uchun maqbul muddatini aniqlashdan iborat.

Nav tasnifi

O‘zbekistonda sholg‘omning mahalliy Muyassar, Namanganskaya mestnaya va Samarkandskaya mestnaya navlari tumanlashtirilgan va keng tarqalgan. Tajribamizdagi “Muyassar” navini tasnifi

Muyassar – tezpishar nav. Barglari yumaloq oval, yirik, tuksiz, silliq. Ildizmevasi yumaloq, oq rangda, o‘rta yiriklikda, eti sersuv, nozik. Hosildorligi – yuqori .

Shuni ta’kidlash lozimki saqlashga va yetishtirish mo‘ljallangan sholg‘omni sifatini va saqlanuvchanlik xususiyatini oshirish uchun saqlashdan yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishdan uning ildizini meva navli to‘g‘ri tanlashga alohida e’tibor berish lozim. Sholg‘om yetishtirishda uning yetishtirish texnologiyalari vaqtida va sifatli bajarilmasa va ilizmeva hosildorligi hamda sifati keskin pasayib ketadi, bunday mahsulot standart talabiga javob berilmaydi va saqlanuvchanlik xususiyati pasayadi.

Ekish muddatlari. Sholg‘om takroriy ekish sifatida ertagi sabzavot yoki boshqoli ekinlardan so‘ng o‘z vaqtida ekilsa, uni o‘sishi va hosildorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatar ekan. Ya’ni, 10 avgustda ekilgan sholg‘om o‘suv davri 90-95 kun davom etib, o‘rtacha vazni 130-150 g bo‘lgan ildizmeva hosil qilgan, tovarbop hosili esa umumiy hosilini 85,6 foizini tashkil etadi. Aksincha 10 avgustda oyda ekilgan

sholg'om hosildorligi 1 avgustda ekilganiga nisbatan 5-7 barovar kamdir. Demak sholg'om takroriy ekish sifatida birinchi avgust ekish maqsadga muvofiqdir.

Sholg'omni yozgi ekish uchun ajratilgan maydonlarda o'tmishdosh ekinlarni yetishtirishda tezpishar navlarni qo'llash, urug' sepish va ko'chat o'tkazishni mumkin qadar erta muddatlarda o'tkazish mahsulotning pishishini tezlashtiruvchi har xil tadbirlarni qo'llash hosilni yig'ib olishni cho'zmaslik va uni qisqa muddatlarda yakunlash talab etiladi.

Takroriy ekin sifatida sholg'om yetishtirishning ma'qbul muddatlarini xosildorlikka ta'siri

1-jadval

Variantlar	Yekish muddati	Hisoblanuvchi paykaldan olingan xosil, kg.	1gektardan olingan xosildorlik, s/ga.
V ₁	01.08.21	2.1	150
V ₂	10.08.21	1.8	120,8

O'tkazilgan tajribalardan yani 4-jadvaldan ko'rinib turibdiki 1-avgustda ekilgan sholg'omning "Muyassar"navining xosildorligi 150 s ikkinchi muddatda yani 10-avgustda ekilgan sholg'omning xosildordorligi 120,8 sentnerni tashkil qildi.

Tajribada bir gektar sholg'om ekilgan maydonidan olingan xosil mikdori, har bir tajriba variantidagi hisoblanuvchi paykaldan yetishtirib olingan sholg'om vazni aniqlab olinadi va uni bir gektar maydon yuzasiga ko'paytiriladi, so'ngra xisoblanuvchi maydon yuzasiga bo'lish orqali xisoblab chiqariladi.

Xulosa

Shunday qilib takroriy ekin sifatida sholg'omni yetishtirishni maqbul mudatlari, saqlash va ulardan turli texnologiyasini yoritish bo'yicha yuqorida keltirilgan adabiyotlardagi ma'lumotlarning taxlilidan quyidagi xulosa va ishlab chiqarishga takliflar berish mumkin.

Andijon viloyati sharoitida sholg'omni Muyassar navini takroriy ekin sifatida 1-avgust va 10-avgust kunlarida ekib tajriba natijalarini o'rganib chiqilganda, bizning sharoitimizda 1-avgustda ekilganda yuqori va sifatli xosil olinganligi aniqlandi. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib sholg'omni 1-avgustda ekishni ishlab chiqarish uchun o'z takliflarimizni beramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018 yil 16 yanvar kuni «Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonni
2. B.J. Azimov, X.Ch. Bo'riev, B.B. Azimov. Sabzavot ekinlari biologiyasi. – T.: UzME, 2001. 3-14 b.
3. N.N. Balashev, G.O. Zeman. Sabzavotchilik. – T.: O'qituvchi, 1977. – 307-326 b.
4. V. Zuev, A. Abdullaev Sabzavot ekinlarini yetishtirish texnologiyasi. – T.: O'zbekiston, 1997. – 89-105.
5. O'zbekiston Respublikasi xududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reestri. – Toshkent, 2020